

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                    |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>B.Sh.Shermuhhammadov, O.Q.Xasanova</b>                                                                                                          |    |
| So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....                                                                                | 5  |
| <b>N.M.O'rinova, M.A.Qodirjonova</b>                                                                                                               |    |
| Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....                                                           | 9  |
| <b>D.M.Begmatova</b>                                                                                                                               |    |
| Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari ..... | 14 |
| <b>Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva</b>                                                                                                                 |    |
| The role of media competence in the work of a teacher .....                                                                                        | 18 |
| <b>D.G.Zaylobidinova</b>                                                                                                                           |    |
| Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlarini .....                                              | 22 |
| <b>F.I.Sharipova</b>                                                                                                                               |    |
| Tibbiyot oliygohlarida ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari .....                                                                     | 26 |
| <b>M.A.Tuxtabayev</b>                                                                                                                              |    |
| Janubiy Koreya ta'lim tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....                                    | 33 |
| <b>S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubannobov</b>                                                                                                              |    |
| Umumiy ta'lim maktablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....                           | 37 |
| <b>S.R.Uraimov S.G'.G'ofurov</b>                                                                                                                   |    |
| Umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish .....                        | 41 |
| <b>S.B.Qodirov</b>                                                                                                                                 |    |
| Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari .....                | 46 |
| <b>A.R.Saydullayeva</b>                                                                                                                            |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....                  | 50 |
| <b>D.A.Abdusamiyev</b>                                                                                                                             |    |
| O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning maktab muhitiga moslashishi.....                                            | 55 |
| <b>A.X.Gafforov</b>                                                                                                                                |    |
| Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lim resurslarini qo'llash .....                           | 59 |
| <b>F.V.Xalilov</b>                                                                                                                                 |    |
| Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....                                            | 63 |
| <b>A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva</b>                                                                                                              |    |
| Analogik muhitda kinematik hodisalarning simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....                                             | 67 |
| <b>S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova</b>                                                                                                                |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....                      | 72 |
| <b>M.E.Yulchiev</b>                                                                                                                                |    |
| Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....        | 76 |
| <b>M.O.Ismoilova</b>                                                                                                                               |    |
| O'quvchilarda kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari .....                                                                           | 81 |
| <b>U.I.Obidjanov</b>                                                                                                                               |    |
| Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari .....                                                                | 85 |
| <b>A.M.Tishabaev</b>                                                                                                                               |    |
| 1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....                                                             | 91 |



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINI KASBIY O'ZINI-O'ZI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI****ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОРАЗВИТИЯ  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА****THEORETICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF  
FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS****Zaylobidinova Dilnoza Gulomovna** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy asoslari, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning amaliy metodik tizimi, vositalari va texnologik asoslari, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlarini tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются теоретические основы профессионального саморазвития будущих учителей иностранного языка, практическая методическая система, инструментарий и технологические основы профессионального саморазвития будущих учителей иностранного языка, а также эффективность профессионального саморазвития будущих учителей иностранного языка. Также были проанализированы теоретические аспекты профессионального саморазвития будущих учителей иностранных языков.*

**Abstract**

*The article studies the theoretical foundations of professional self-development of future foreign language teachers, the practical methodological system, tools and technological foundations of professional self-development of future foreign language teachers, the effectiveness of professional self-development of future foreign language teachers. Also, the theoretical aspects of professional self-development of future foreign language teachers are analyzed.*

**Kalit so'zlar:** *pedagog, nazariy-metodologik asos, kompetentlik, takomillashtirish, texnologik, model, metodik tizim, xorijiy til, kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, vosita, akmeologik yondashuv.*

**Ключевые слова:** *педагогическая, теоретико-методологическая основа, компетентность, совершенствование, технологический, модель, методическая система, иностранный язык, профессиональное саморазвитие, инструмент, акмеологический подход.*

**Key words:** *pedagogical, theoretical and methodological basis, competence, improvement, technological, model, methodological system, foreign language, professional self-development, tool, acmeological approach.*

**KIRISH**

Bugungi kunda bo'lajak kadrlarni kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu orqali ularni muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlash, tizimli va izchil ravishda kamolotga yo'naltirish ishlariga alohida urg'u berilmoqda. Ayniqsa, ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va bu orqali ularning kasbiy tayyorgarligini professional darajaga olib chiqish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida yangicha qarashlar qaror topayotgan bir davrda kelajak avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, boshqarish, barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni bilan bog'liq bir qator izlanishlar mavjud. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, vositalari, konsepsiyasi, tamoyillari, lingvometodik asoslariga oid masalalar Max Walter, Michael West, Anthony Philip, Maximilian Berlitz, I.L.Bim, N.N.Boldirev, N.D.Galskova, YE.N.Zaretskayalar, YE.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, J.B.Bo'ronov, S.N.Aliyev, A.M.Bushuy, J.J.Jalolov, L.T.Axmedova,

F.M.Rashidova, I.M.Tuxtasinov, K.SH.Muradkasimova, F.X.Ibragimova, K.D.Riskulovalar tomonidan o'rganilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va shu asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari dolzarb ta'limiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga xos kasbiy qonun-qoidalarini bilishi va ularga amal qilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlash uchun ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashga e'tibor qaratilishi lozim.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kasb – inson mehnat faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar" sifatida ta'riflanadi.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda "kasb" tushunchasi - "maxsus tayorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, uni jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlarini ta'minlovchi insoniy faoliyatning turidir" - deb ta'riflangan.

Kasb tanlash va kasbiy faoliyatni shakllantirishga oid masalalar bir qancha pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan: Professor J.Xasanboyev bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy faoliyatga e'tibor qaratadi va kasbiy faoliyatga quyidagicha ta'rif beradi: -Kasbiy funksiya – tegishli o'quv muassasalarining bitiruvchisiga tegishli bo'lib, shaxsning hayotda egallagan sohasida faoliyat ko'rsata olish, o'z kasbi doirasida bilimlarini o'zlashtirish va ularni og'ishmay amalda joriy eta olish faoliyatidir.

Professor M.Ochilov o'zining "O'qituvchi odobi" asarida "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli ahloqiy normalar va talablar ham bor, bunday ahloq kasb (professional) ahloqi deyiladi" degan fikrlarni beradi. Olim bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab, "Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining barqaror tizimidir" degan fikrni beradi.

Olim B.X.Rahimov o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy madaniy munosabatlarini tadqiq etgan. Uni fikricha: "Kasbiy madaniy munosabatlar shaxslararo amal qiladigan, ijobiy munosabatlar yechimiga erishishda asosiy vosita, vazifasini bajaradi va shaxs faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi". Shuningdek, tadqiqotchi G.Boymurodov o'z tadqiqotida "Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasini, ko'proq fanlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda natijasini ko'ra bilishni chuqurlashtirish" deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi olimlar tadqiqotlari yuzasidan ma'lum bo'ladi, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Pedagog olim N.M.Egamberdiyeva o'zining izlanishlarida pedagoglarni "kasbiy yetuklik"gi har bir mutaxassis uchun zarurligini ta'kidlaydi. Kasbiy yetuklik yaxlit bir tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi: Ularga "pedagogik madaniyat, ijodkorlik, pedagogik aql-idrok, pedagogik bilimga egalik, individual faoliyat, insonparvarlikka yo'naltirilganlik, ijtimoiy faoliyat" ni kiritish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini o'stirish bilan birga ijtimoiy-madaniy va kommunikativ sifatlarini ham yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini hisobga olgan holda, tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik faoliyatda jamoaga tez moslashib ketish ko'nikmalari, kasbiy va pedagogik faoliyatda o'z-o'zini baholash va tizimli baholab borish ko'nikmalari va o'z-o'zini rivojlantirish layoqati kasbi indiktorlarni integratsiyalash zarurligi kelib chiqadi. Fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va ko'nikmalaridagina iborat emas, ularning ijtimoiy-madaniy va kommunikatsiya jarayonidagi fazilatlariga ham bog'liqligi ko'rsatib berildi va uyg'unlikda rivojlantirilishi tahlil qilindi.

Pedagog olimlar F.Xaydarov va N.Muslimovlar pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim tomoni, uni tanlagan kasbiga va mehnat faoliyatiga bog'liqligini asoslab, unda quyidagi maqsadlar tizimini, ehtiyojlar va motivlar bilan uyg'unlashishini ko'rsatib berganlar: intellektual salohiyat – fikrlash turlari (ijodiy, nazariy, amaliy bilim.); irodaviy sifatlar – (maqsadga intiluvchanlik, qiyinchiliklarni yenga olish); hissiy sifatlar – (o'z-o'zini baholash.); amaliy ko'nikmalar – (o'zida psixologik, pedagogik, metodik va texnik, texnologik qobiliyatlar...); o'z-o'zini boshqara olish; komponentlik – olingan nazariy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi va pedagogik amaliyot jarayonida qo'llay olishi.

Professor N.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida mutaxassislarning kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlarni berib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Shaxsda kasbiy sifatning mavjudligi, uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi".

Kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy o'z-o'zining anglash, motivatsion-qobiliyatli va mazmunli-jarayonli komponentlarning birligini o'zida ifodalovchi shaxsning dinamik tuzilmali-darajali ta'limi sifatida qaralishi mumkin. Bu boradagi tahlillarga yanada oydinlik kiritish maqsadida ayrim manbalarga murojaat qilamiz.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ustida gap borar ekan, bu o'rinda G.A.Larionovning fikr-mulohazalari e'tiborimizni tortdi. Olimaning fikriga ko'ra, tayyorgarlik tuzilmasiga amaliy bilimlar majmuasi va shaxsning faoliyatga kirishini ta'minlovchi xususiyatlari kiradi. Mehnatga tayyorgarlik esa ikki omil, ya'ni operatsional (bilim va ko'nikmalar) va shaxsiy (ko'rsatma, mehnatga yo'naltirilganlik, kasbiy motiv xususiyatlari, odat va munosabatlar tizimi, emotsional va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy amaliyotli sifatleri) komponentlaridan iborat murakkab tizim hisoblanadi.

Boshqa tadqiqotlarda esa kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikning bir qator komponentlari kiritilganligini ko'ramiz. Ular: kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy amaliyotli sifatlar, kasb ustuvorligini anglash va boshqalar. Bunday holatda kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

G.A.Larionova tadqiqotida talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi kompetensiyalar to'plami amaliy tavsifdagi masala va topshiriqlar orqali aniqlangan, unda talabalarining o'quv fanlari bo'yicha egallagan bilimlari asos sifatida qabul qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini tadqiq etish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini-o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari E.F.Zeyer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, professional jihatdan muhim psixofiziologik xususiyatlarini ifodalaydi.

V.A.Adolf kasbiy tayyorgarlik – talabalardan talab qilinadigan kasbiy funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligini rivojlantirish ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u har bir mutaxassisda kasbiy faoliyatning talab qilinadigan natijasini ta'minlaydigan professional muhim fazilatlarni mavjudligiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish va rivojlantirish universitetda o'qish jarayonida tashkiliy-pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ular xuddi A.K.Markova yozganidek, tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik vositalar (mazmun, shakl, usullar)ni tanlash, har xil faoliyat turlari (o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, tadqiqotlar vah.k.) ni tashkil qilishni, kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog'liq bo'lganlarni o'z ichiga oladi.

Rus olimlari L.S.Vigotskiy, B.S.Gershunskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professionallik, shaxsni kasbiy shakllantirish nafaqat ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni, balki ijtimoiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi murakkab aqliy tizimlarni shakllantirishni, ushbu kasb vakillariga xos bo'lgan shaxsiy, kasbiy tajribani to'plash va uni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Pedagogik va nopedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy mahoratini shakllantirish masalalari bo'yicha rus olimlari V.A.Adolf, A.M.Kochnev, M.M. Levinalar o'z izlanishlarini olib borishgan. Kasbiy va pedagogik kompetensiyani o'rganishga bag'ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotlar N.S.Rozov, YE.A.Klimov, N.V.Kuzminalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, kasbiy pedagogik kompetensiyaning alohida tarkibiy komponentlarini shakllantirish vositalarini o'rganish D.Sheylz, G.Y.Bush va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Mutaxassisning tayyorgarligini shakllantirishda alohida o'quv fanlarini tashkil etish yo'llari O.V.Doljenko, B.A.Dushkov, Y.N.Yemelyanov, I.P.Kaloshinalar tomonidan, kasbiy va pedagogik kompetensiyaning alohida komponentlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari esa M.V.Klarin, V.V.Gorshkova, M.I.Lisina, V.Y.Lyudislar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, kasbiy

## PEDAGOGIKA

pedagogik kompetensiyaning alohida tashkiliy qismlari (komponentlari)ni shakllantirishning pedagogik jarayonlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud, ammo mazkur jarayonlar bir-biridan alohida tadqiq etilmoqda.

V.A.Bodrov g'arb va rus tadqiqotchilarining kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish borasida to'plangan asosiy nazariyalar, g'oyalarni tahlil qilib quyidagi hulosani bergan: «Kasbiy muvaffaqiyat insonning individual psixologik xususiyatlarining amaliyot talablariga muvofiqligi darajasi bilan belgilanadi.

**XULOSA**

“Ijodkor o'qituvchi”da ham “Ilg'or pedagog”dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l-yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi”. Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Адольф В.А., Ильина Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления: монография. Красноярск: Поликом, 2007
2. Ларионова Г.А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания, действия, деятельность, самоопределение : монография. – Челябинск. – 2004. – 171. С
3. Леонтьев, А.А. Педагогическое общение / А.А. Леонтьев. — М.: МГУ, 1979.-112 с
4. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
5. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Т.1.-М.: ВЛАДАС, 1999, 235 с.
6. Рахимов Б.Х. Ёўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.
7. Рубинштейн Сергей Леонидович Основы общей психологии, Издательство «Питер», 2000. – 570 с.
8. Хайдаров Ф.И. Муслимов Н. Педагогик кадрлар тайёрлаш истиқболи. Педагогик таълим. Тошкент.: 6-сон 2009. –Б. 8-9.
9. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳам касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти. Автореферат.Тошкент, 2010.-Б.17.